




# SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-iyul oyi  
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-iyul oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **426,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **133,6** mln. AQSh dollariga yoki **45,7** % ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyul, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	292592,1	426211,5	<b>145,7 %</b>	x
<b>Eksport</b> 	81074,7	138788,5	<b>171,2 %</b>	100,0
 <i>tovarlar</i>	80256,2	137603,7	171,4	99,1
 <i>xizmatlar</i>	818,5	1184,8	150,0	0,9
<b>Import</b> 	211517,4	287423,0	<b>135,9 %</b>	100,0
 <i>tovarlar</i>	211517,4	287423,0	135,9%	100,0
 <i>xizmatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0
<b>Saldo</b> 	-130442,7	-148634,5	x	x






Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **138,8** mln. AQSh dollariga (**71,2** % ga ko'paydi) va import hajmi **287,4** mln. AQSh dollariga (**35,9** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **148,6** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO  
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA  
BO'LGAN DAVLATLAR**  
(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da.)



## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-iyul oyida **426,2** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **45,7** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston bilan tashqisavdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.





## 10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyul)





Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (113,7 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (99,5 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (71,3 mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (49,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo jahonning 52 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAda salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (26,7 %), Qozog'iston (23,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (16,8 %), Afg'oniston (11,7 %), Germaniya (4,7 %), Qirg'iz Respublikasi (0,7 %) va Turkiya (3,8 %) qayd etilgan.

## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)











Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Rossiya Federatsiyasi	<b>58,1</b>	<b>72,0</b>	<b>113,7</b>
<i>Eksport</i>	11,7	15,9	25,9
<i>Import</i>	46,4	56,1	87,8
Qozog'iston	<b>68,8</b>	<b>59,7</b>	<b>99,5</b>
<i>Eksport</i>	20,9	11,6	12,6
<i>Import</i>	47,9	48,1	86,9
 Xitoy Xalq Respublikasi	<b>95,0</b>	<b>47,5</b>	<b>71,3</b>
<i>Eksport</i>	17,0	11,5	27,2
<i>Import</i>	78,0	36,0	44,1



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)




Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Afg'oniston</b>	<b>4,3</b>	<b>26,7</b>	<b>49,9</b>
 Eksport	4,3	26,7	49,9
Import	-	-	-
<b>Pokiston</b>	<b>1,1</b>	<b>0,9</b>	<b>6,7</b>
 Eksport	1,1	0,9	6,3
Import	-	-	0,4
<b>Litvaya</b>	<b>2,7</b>	<b>4,4</b>	<b>2,2</b>
 Eksport	-	-	-
Import	2,7	4,4	2,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>1,6</b>	<b>2,3</b>	<b>3,2</b>
 Eksport	0,5	0,6	2,7
Import	1,1	1,7	0,5
<b>Turkiya</b>	<b>16,1</b>	<b>8,7</b>	<b>15,3</b>
 Eksport	2,6	0,9	6,7
Import	13,5	7,8	8,6
<b>Ispaniya</b>	-	-	<b>1,4</b>
 Eksport	-	-	-
Import	-	-	1,4
<b>Germaniya</b>	<b>5,7</b>	<b>15,5</b>	<b>20,1</b>
 Eksport	-	-	-
Import	5,7	15,5	20,1
<b>Tojikiston</b>	<b>2,6</b>	<b>3,4</b>	<b>1,9</b>
 Eksport	1,4	3,0	1,6
Import	1,2	0,4	0,3



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyul 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>426 211,7</b>	<b>145,7</b>
Boyovut	17 953,2	120,9
Guliston	12 311,2	3,8 m.
Mirzaobod	15 400,1	67,5
Oqoltin	7 994,2	175,2
Sardoba	4 806,1	2,2 m.
Sayxunobod	40 871,8	2,5 m.
Sirdaryo	99 665,4	104,2
Xovos	17 276,9	122,0
Guliston sh.	46 911,6	139,4
Shirin sh.	79 665,1	2,0m.
Yangiyer sh.	82 768,1	181,1

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Sirdaryo - 99 665,4**

**Yangiyer sh. - 82 768,1**

**Shirin sh. - 79 665,1**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Guliston – 12 311,2**

**Oqoltin – 7 994,2**

**Sardoba – 4 806,1**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **23,4 %** ulush bilan **99 665,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Sardoba tumani **1,1 %** ulush bilan **4 806,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi.







Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **53,1** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **0,3** % ga kamaygan.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-iyul oyida 2020- yil ulushiga nisbatan **0,3** % ga ko'payib va jami TSAdagi ulushi **46,9** % ni tashkil etdi.







## SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyul, ming AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) ga a‘zo bo‘ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-iyul holatiga **226 253,1** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport - **44 642,3** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import – **181 610,8** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**59,1** %), Qozog‘iston (**44,0** %), Qirg‘iz Respublikasi (**1,4** %), Turkmaniston (**1,8** %) va Tojikiston (**0,9** %) davlatlari bilan qayd etildi.




# SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-iyul, ming AQSh dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **217 189,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **41 310,4** ming AQSh dollari, import hajmi esa **175 878,9** ming AQSh dollariga yetdi.





## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-iyul)



Joriy yilning yanvar-iyul oyida viloyatning eksportyorlari soni **128** tani tashkil etib, ular tomonidan **138 788,5** ming AQSh dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **71,2 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**30,2 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**48,1 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**2,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020- y	2021- y	2020 -y	2021- y	2020- y	2021- y
<b>Jami eksport</b>	<b>80 974,5</b>	<b>138 276,3</b>	<b>111,7</b>	<b>171,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	41 009,9	66541,6	165,6	162,3	50,6	48,1
Ichimliklar va tamaki	2,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11 085,7	10199,7	87,3	92,0	13,7	7,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	590,4	0,0	88,2	0,0	0,7	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3 870,4	2833,3	149,4	73,2	4,8	2,0
Sanoat tovarlari	16 095,2	41766,1	77,0	2,5m.	19,9	30,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	949,7	4043,6	74,2	4,2 m.	1,2	2,9
Turli xil tayyor buyumlar	6552,0	12116,4	78,4	184,9	8,1	8,8
Xizmatlar	818,3	775,6	67,4	94,7	1,0	0,6





## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-iyul oyida **138 788,5** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **57 713,8** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	14938,3	120,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	40517,0	186,9 m.
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1453,5	184,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,0	12,2
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	8990,9	87,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	12,9	87,0
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	653,8	19,9 m.
Qog'oz massasi va makulatura	110,4	33,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va maxsulotlar	1 797,7	76,0
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	127,5	57,9
Efir moylari , rezinoidlar va attorlik moddalari ; xojatxona preparatlari, polirofkalash va yuvish vositalari	2,52	9,7 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	204,7	58,3
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6547,3	2,9m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	8089,6	170,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3083,3	3,2 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	141,8	134,3
Avtomabillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari ham)	26,2	2,4m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2105,4	3,4 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	9625,9	186,3
Har xil tayyor buyumlar	524,8	3,9 m.








## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-iyulidagi **41,2** % dan 2021- yilning yanvar-iyunida **32,2** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **67,8** % ni tashkil etdi.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyul, % da)**

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **36,1** %), Rossiya Federatsiyasi (**18,8** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**19,7** %), Pokiston (**4,6** %), Qozog'iston (**9,1** %), Turkiya (**4,8** %) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **6,8** foizni tashkil etmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Afg'oniston	26 814,2	49 904,6	6,2 m.	186,1	1	1
Rossiya Federatsiyasi	15 984,3	25 937,8	137,1	162,3	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	11 541,0	27 207,2	67,9	2,3 m.	4	2
Qozog'iston	11 618,6	12 625,3	55,5	108,7	3	4
Turkiya	940,3	6 660,5	35,7	7,0 m.	5	5
Pokiston	936,5	6 318,5	81,6	6,7 m.	6	6
Qirg'iz Respublikasi	597,3	2 217,7	111,1	3,7 m.	7	7





## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyul)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>138 788,5</b>	<b>171,2</b>
Boyovut	10 184,8	101,9
Guliston	10 637,1	5,6 m.
Mirzaobod	9 246,4	127,6
Oqoltin	3 493,5	3,4 m.
Sardoba	1 391,7	76,4
Sayxunobod	11 932,3	172,1
Sirdaryo	32 077,6	174,8
Xovos	9 209,2	191,1
Guliston sh.	14 960,6	2,0 m.
Shirin sh.	3 247,8	115,0
Yangiyer sh.	31 998,1	175,7

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Sirdaryo - 32 077,6**

**Yangiyer sh. - 31 998,1**

**Guliston sh. – 14 960,6**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Oqoltin – 3 493,5**

**Shirin sh. – 3 247,8**

**Sardoba – 1 391,7**

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **23,1** % ulush bilan **32 077,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Sardoba **1,0** % ulush bilan **1 391,7** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **17 602,4** ming AQSh dollari qiymatli **43 081,3** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **3 023,9** ming AQSh dollarida oshganni kuzatilib, **20,7** % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **13 446,9** ming AQSh dollariga teng **33 949,3** tonna sabzavot, shuningdek, **4 155,5** ming AQSh dollari qiymatidagi **9 132,0** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-iyul)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **39,0** % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-iyul)

Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	2 508,5	2 095,1	11,9
Pokiston	2 848,2	4 716,4	26,8
Rossiya Federatsiyasi	4 003,7	1 956,6	11,1
Qozog'iston	27 598,1	5 655,9	32,1
Xitoy Xalq Respublikasi	395,0	428,8	3,7
Qirg'iz Respublikasi	278,3	260,2	1,6

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **4,7** m.% ga ko'paydi.)



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-iyul)




2021- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi **287 423,0** ming AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **135,9** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashina va transport asbob-uskunalari (**33,2** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**27,8** %) hamda mineral yoqilg'i, moylari va shunga o'xshash mahsulotlar (**16,5** %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyul import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75 905,6** ming AQSh dollariga ko'paydi va **287 423,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.





## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2020 - y	2021 - y	2020-y	2021 -y	2020 -y	2021 -y
<b>Jami import</b>	<b>211 517,4</b>	<b>287 423,0</b>	<b>84,6</b>	<b>135,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47 513,5	79 837,5	180,3	168,0	22,5	27,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7 313,5	8 814,3	77,5	120,5	3,5	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7 107,3	47 528,8	41,5	6,6 m.	3,4	16,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	385,9	4 308,7	92,5	11,1 m.	0,2	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	37 970,8	28 714,2	69,3	75,6	18,0	10,0
Sanoat tovarlari	14 476,0	16 677,1	91,9	115,2	6,8	5,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	87 872,3	95 404,2	81,8	108,6	41,5	33,2
Turli xil tayyor buyumlar	8 878,1	6 138,2	49,0	69,1	4,1	2,1
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



## SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-iyul oyida **287 423,0** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **75 905,6** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	63727,0	152,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	302,6	2,0m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2614,6	20,0m.
Tirik xayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan xayvonlardan tashqari	6555,2	2,8m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	2 628,7	102,0
Metall rudalari va metall parchalari	610,2	40,7
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	4 535,5	172,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	128,6	134,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	42 575,7	9,9m.
Ko'mir, koks va briketlar	4 953,1	175,8

<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	4 308,30	11,5m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,421	3,4



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul)




XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 526,87	160,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	5 147,11	22,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 605,26	3,5m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	873,84	80,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	7 496,83	147,5
Noorganik kimyo moddalari	1 699,35	171,8
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	2 110,2	70,7
Metalldan tayyorlangan buyumlar	2 628,3	70,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 986,5	111,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 359,2	2,3m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	45 797,5	109,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	14 940,9	134,1
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2 406,1	89,9
Energiya generatori mashinalari va asbob -uskunalar	23 977,9	103,2
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3443,9	139,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1379,6	24,4
Har xil tayyor buyumlar	803,2	2,3m.






## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-iyul oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **50** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning **91,3 %** ulushini tashkil qildi, bu **262 387,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Rossiya Federatsiyasi	56 113,2	87 846,2	120,7	156,6	1	1
Qozog'iston	48 088,6	86 920,0	100,5	180,7	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	35 995,7	44 129,4	46,1	122,6	3	3
Avstriya	8 666,8	10 890,2	78,1	125,7	6	5
Turkiya	7 830,2	8 634,8	58,1	110,3	7	6
Germaniya	15 447,4	20 096,1	2,7 m.	130,1	4	4
Turkmaniston	12 074,7	3 871,1	156,3	32,1	5	7

## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2020- yil yanvar-iyul)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>287 423,0</b>	<b>135,9</b>
Boyovut	7 768,4	160,0
Guliston	1 674,1	127,6
Mirzaobod	6 153,7	39,6
Oqoltin	4 500,7	126,3
Sardoba	3 414,4	10,8 m.
Sayxunobod	28 939,5	3,2 m.
Sirdaryo	67 587,8	87,4
Xovos	8 067,7	86,3
Guliston sh.	31 951,0	121,5
Shirin sh.	76 417,3	2,0 m.
Yangiyer sh.	50 770,0	184,7

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Shirin sh - 76 417,3**

**Sirdaryo - 67 587,8**

**Yangiyer sh- 50 770,0**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Oqoltin – 4 500,7**

**Sardoba – 3 414,4**

**Guliston – 1 674,1**

Viloyatda importi tarkibida eng yuqori ulushni Shirin shahri **26,6 %** ulush bilan **76 417,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda importi tarkibida eng quyi ulushni Guliston tumani **0,6 %** ulush bilan **1674,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi.






## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **95 404,2** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **33,2** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyul)



Mashina va transport uskunalari importi hajmining ko'payishiga sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari (**134,1** %), shuningdek, elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan (**142,2** %) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.

## SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-iyul oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **16 677,1** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,2** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **5,8** % ga yetdi.

### SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyul)




#### Rossiya Federatsiyasi

9 238,7 ming AQSh dollari  
ulushi – 55,4 %



#### Xitoy Xalq Respublikasi

2927,5 ming AQSh dollari  
ulushi – 17,6 %



#### Qozog'iston

1585,8 ming AQSh dollari  
ulushi – 9,5 %



#### Belarus

504,7 ming AQSh dollari  
ulushi – 3,0 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**7218,2** ming AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**2628,3** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**1 986,5** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: (67) 236 86 34

